

## INGLIZ TILIDAGI KOMIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY ASOSLARI

*Yaxshilikova Gulsum Allayor qizi*

*O'ZMU xorijiy filologiya fakulteti lingvistika yo'nalishi*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Tilshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan til va janrlarga xos umumiy xususiyatlariga doir ko'pgina materiallar chop etilib o'rganilgan bo'lsa-da, ularni bir-biriga bog'liqlikdagi xossalarga doir masalalar ochiqlicha qolmoqda. Ushbu maqolaning lingvistik va badiiy jihatdan o'rganilishida bugungi kunda o'rganilish ahamiyati yuqori bo'lgan ingliz tilidagi komediya janrida asarlarda qo'llanilgan antroponimlarning lingvomadaniyatshunoslikka doir bilimlar asosida tahlillarini yoritish va undagi muammolarni o'rganishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** lingvistika, lingvokulturologiya, onomastika, antroponomiya, komediya, satira va yumor.

**Annotation:** Although a lot of material has been published and studied by linguists and literary scholars on the common features of languages and genres, the issues regarding their interrelated properties remain open. In the linguistic and artistic study of this article, the analysis of the anthroponyms used in the works of the comedy genre in English, which is of high importance today, is devoted to the analysis based on the knowledge of linguistic and cultural studies and to the study of its problems.

**Key words:** Linguistics, linguoculturology, onomastics, anthroponymy, comedy, satire and humour.

Dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, har qanday nazariy va amaliy bilimlarni amaldagi ilmiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosida hosil qilinadi. Lingvistika sohasida esa hajman katta manbaalarni soha doirasiga qamrab oladi. Uning bir qismini qiyosiy-chog'ishtiruv metodi bo'yicha tahlil etishda zamonaviy tilshunoslikda adabiyotshunoslikka doir tushunchalar bilan bog'lash keng tarqalgan tadqiqot mavzulariga aylandi. Ma'lumki, tilning jozibasi unda yaratilgan asarlar orqali namoyon bo'ladi. Uni chuqurroq tushunish uchun esa tilshunoslikka oid ko'nikmalarni lingvomadaniy jihatdan solishtirib tadqiq etish turli lingvistik nazariyalarni ochib berishda asosiy o'rin tutadi.

Ingliz tilida linguokulturologiya XX asrdan alohida soha sifatida tadbqiq etila boshlangan bo'lib, unga doir V.Labov, E.T.Hall, D.H.Hymes singari olimlar tomonidan turli nashrlar chop etilgan. Tilning madaniy ya'ni linguokulturologik asoslarini antroponomika bilan bog'lash yana bir ilmiy yangilik bo'lib, turli ilmiy ishlarning asosiy mavzusi bo'lib xizmat qildi. Antroponomika ma'lumki, kishi

nomlarini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limi, onomastikaning asosiy turlaridan birini tashkil etadi. Antroponomik birliklarga esa ism, familiya, ota ismi, laqab, taxallus va hakazolarni kiritishimiz mumkin. K.Semenxa, M.Zettin, R.Hog, R.Koats singari tilshunoslarni bu sohaning yetuk mutaxassislari deb aytishimiz mumkin.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi va ahamiyatli jihati yuqorida keltirilgan tushunchalarni adbiyotning aynan bir turi ya'ni komediya janridagi asarlarda foydalanilgan kishi nomlarini qo'llashdagi lingvomadaniy asoslarini yoritishdir. Bungacha ham ko'pgina nashrlarda adbiyotning ko'pgina janrlari bilan qiyosiy va chog'ishtiruv metodlari jihatidan semantikasi diskursiv tarzda anliz qilingan bo'lsa-da, yoritmoqchi bo'lgan maqola mavzusi ilmiy tadqiqoti jihatidan yangi mavzu deb hisoblaymiz.

Dramaturgiyada komediya janrining asosida kulgu yotadi va u ikki katta turga ajratilib o'rganiladi. Bular: satira va yumor. Ularni tashkil etuvchi stilistik vositalar esa ironiya, tabo, giperbola, takrorlar, kesatiq va boshqa ko'pgina turlaridan foydalaniladi. Dastlab keltirib o'tilgan satira va yumorga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, ulr bir-biridan turli xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, yumorda sof kulgu kayfiyatni ko'tarish uchun foydalanilsa, satirada tanbeh berish, jamiyatdagi illatlarni fosh etish orqali shaxsni tarbiyalash yotadi. Shunga ko'ra ular farqlanadi, O'xshashligi esa ularning har ikkisi kulgu tuyg'usini uyg'otish uchun xizmat qiladi. Satira va yumor aynan komediya janridagi asarlarda emas balki, boshqa janrning aynan bir personaji yoki uning qaysidir harakatlarida ham komediyani ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilida yozilgan dunyoga mashhur asarlarni tahlil etish uchun juda ko'p misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. Chunki ularning har biri o'ziga xos noyob xususiyatlarni o'zida jamlaganidir. Jumladan, Mark Tvenning "Tom Soyerning Sarguzashtlari" asarini olsak, Tom Soyer, Polli xola, Beki Tetcher, Joe Harper, Sid, Meri, Dr. Robinson, Jim va boshqa ko'pgina nomlarni uchraishimiz mumkin. Undagi asosiy qahramon ismi Tom ya'ni Tomas bo'lib keng tarqalgan ismlardan biridir. Qahramonning xarakterini ochib berishda aynan shu ism tanlangani bejiz emas, uning ma'nosi "innocence" - "beayb, aybsizlik" degan ma'noni ham anglatadi. Asar qahramoni garchi sho'x va o'zi xohlamagan holda ko'pgina muammolar qurshovida qolsa ham, vijdoni pok va mehribon bola sifatida tasvirlanadi. U haqida asarni o'qigan sari unga muhabbat va achinish hissi paydo bo'ladi va yozuvchi tomonidan ham aynan shu ism unga munosib ko'rilgan. Uning xolasi Polli haqida aytishimiz mumkinki, uning ismi "rebellion" - "isyon" ma'nosini anglatib, hayot qiyinchilikaridan charchagan, yelkasiga katta yukni ortgan personaj singari tasvirlanadi. Jim ismi esa Jemis yoki Yakob ismlarining qisqartirilgan shakli bo'lib, "supplenter" - "egiluvchan" degan ma'noni bildirib Polli xola nima desa o'sha ishni bajaruvchi bola sifatida tasvirlanadi. Asardagi boshqa qahramonlar haqida ham aytishimiz mumkinki, ularning xarakteri va ismlarining etimologiyasi ham asar mazmunini yoritishda va ular haqida

tushuncha hosil qilishda tanlangan kishi nomlari asosiy o‘rin tutib o‘quvchida o‘zgacha tassurrot qoldiradi.

Ingliz badiiy adabiyotida ko‘pgina asar qahramonlarining tanlanish sabab va maqsadlarini boshqa misollar asosida ham yoritib berishimiz mumkin. Jorj Oruvellning “Molxona” asari bir qarashda sodda, undagi voqealar kulgili tarzda tasvirlansada, uning tag zamirida katta ma’no yotadi. Asarning asosiy qahramonlari hayvonlar bo‘lib, ular kishi nomlarini berish bilan shaxslantirilgan. Asarda asosiy qo‘llanilgan nomlar: Frederik, Jonas, Pilington kabi shaxslarni va xo‘tik- Benjamin, to‘ng‘iz-Napoleon, ot-Bokser, Molli kabi havvonlarning personajlari hosil qilingan. Asar satirik janrda bo‘lib jamiyatning qurilishidan va qulashigacha bo‘lgan jarayoni yoritib berilgan. Aslida u ingliz yozuvchisi bo‘lsa-da, o‘sha davrdagi Sovet davridagi ijtimoiy tuzumning halokatini ko‘rsatib bergan edi. Har bir tanlangan qahramonning xos tarixi va sabablari bor. Masalan, Napoleon –mashur Fransuz inqilobchisi nomidan olingan va bu asarda Stalinga tenglashtirilib ko‘rsatib bergan, Benjamin- ziyolilar qatlami, hech narsaga arslashmasdan sokinlikni avfzal biluvchilarni ko‘rsatib bergan. Boshqa qahramonlarning ham asarda yashirin vazifalari bor. Asarni to‘liq o‘qib tanishib chiqqan kitobxon butun bir jamiyatning ma’lum bir vaziyatda qay tarzda vujudga kelishi va yoq bo‘lib ketishidagi sababalari va eng asosiysi qo‘llanilgan nomlar uning mazmuniga qay tarzda ta’sir etishining guvohi bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan ikkala misol orqali ko‘rishimiz mumkinki, asardagi har bir qo‘llanilgan detal bir biriga aloqadorlik asosida butun boshli matnning mohiyatini ochib beradi ismlar ham xuddi shunday vazifani bajargan holda lingvokulturologik jihatdan ingliz tilida yozilgan asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda aynan madaniy xususiyai bilan dunyoqarashning boyishiga sabab bo‘ladi.

### **Xulosa va tavsifalar**

Ushbu maqolani yoritishdan asosiy ko‘zlagan madsad bu- ingliz badiiy adabiyoti misolida qay tarzda uning madaniyatini ko‘rsatib berishda tilshunoslik sohasi yordaida yoritib berish edi. Bunda adabiy janrlardan foydalalnilgan asaralar komediyaning satira va yumor turlariga tegishli bo‘lsa-da, har qanday til, din, madaniyat va e’tiqod turlicha bo‘lishiga qaramay turli millat vakillari avvalo o‘zlarining jamiyatiga yoki kichik guruhlariga qiyoslaydi. Undagi xato va kamchiliklarini ko‘rib, bevesta ularni sinxronik tarzda analiz qiladilar.

Ilmiy tadqiqotchi amaliyotchilar bugungi kunda ilmiy yangiliklarining asosini ochib berishlarida va yangilik kiritishlarida tilning badiiy adabiyotini ham tadqiq etishlari va uni tilshunoslik bilan bo‘g‘lashdagi asosiy vositalarni ishlab chiqiqshlafri lozim. Shundagina fanning yangi qirralarini ochishda o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Bu maqoladagi ma’lumotlar bilan biz to‘xtab qolamaymiz va keying ishlarda albatta yangi yo‘nalishlar bilan to‘ldirib boramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nazarova.N. Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of pragmalinguistics, functional translation studies and language teaching processes.
2. Room .A An Alphabetical Guide to the Language of Name Studies.- Lanham and London:The Scarecrow Press.
3. Hog R., Denison D. The History of English language.-Edingurg.Cambridge University Press. 2006.
4. Zerkina N.N. Historical and social background of English name giving process. Arab world English journal. Vol.9.1. March 2018.
5. Langendonck W.V. Trends in Linguistics. Theory and Typology of Proper Names.-Berlin, Mounton de Gruyter, 2007.